

ABDURAHMON JOMINING TALIMIY AXLOQIY QARASHLARI

Hamrayeva .O.F

Farg‘ona davlat universiteti

O‘qituvchisi

Fayziyev Nekruz Juraali o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti

Jismoniy madaniyat fakulteti

2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mutafakkir Abdurahmon Jomiyning asarlarida ta’lim-tarbiya, pedagogik qarashlar va XV asr madaniyati, turmush tarzi, ijtimoiy hayotiga oid gumanistik g‘oyalarining talqini yoritilgan. Abdurahmon Jomiy ilmiy va adabiy merosining asosiy qismida pand-nasihati ruhi ustuvorlik qilib, asarlarining aksariyati insonni bilim olishga, hunar o‘rganishga, botinam go‘zallikka chorlab komillik tomon etaklaydi.*

Kalit so‘zlar: *Tarbiya, hunar, kitobga muhabbat, bilim, pandu- nasihat, jaholat, tasavvuf, ma’naviy tarbiya, axloq, kamolotga erishish, komil inson.*

Sharq adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri Nuriddin Abdurahmon ibn Jomiyning ajdodlarga qoldirgan merosi necha asrlardirki o‘z qadr-qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Boisi Jomiy qalam tebratgan mavzular insoniyat hayoti davomida hamisha dolzarb va eskirmasdir. Alloma Abdurahmon Jomiy 1414-yili Jom shahrining Xarjurd mavzesida ma’rifatparvar shaxs Ahmad Ibni Muhammad Dashtiy oilasida dunyoga keladi. Jomiyning oilasi Hirotga ko‘chib keladi va u o‘z davrida mashhur bo‘lgan Nizomiya madrasasida tahsil oladi. Ushbu madrasada Jomiyga Xojaali Samarqandiy, Said Sharif Jurjoniy, Mavlono Shahobiddin Muhammad, Mavlono Sa’diddin Taftazoniy kabi olimu fuzalolar va mudarrislar ta’lim beradi. Mana shunday ulug‘lar qo‘lida tahsil olgan navqiron yigitni kelajakda buyuklik kutayotgan edi. Qisqa vaqt ichida madrasadagi kitoblarni o‘qib chiqqan, Abdurahmon Jomiyning iqtidori shu darajaga yetgandiki, tez orada ayrim ustozlari va mudarrislar bilan bemalol bahsu munozara qila oladigan bo‘ladi. Shuning uchun keyinchalik tahsilni davom ettirish va yanada ko‘proq ilm egasi bo‘lish maqsadida Samarqandga yo‘l oladi. Jomiy u yerda Qozizoda Rumiy qo‘lida ta’lim-tarbiya oladi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Qozizoda Rumiy shogirdining ba’zi ilmiy munozaralardagi e’tirozlarini mamnuniyat bilan qabul qilgan, uning ilmiy kuchiga tahsinlar o‘qigan. Chunonchi, atoqli olim Mavlono Fathulloh Tabriziy yozishicha:

Ulug'bek madrasasi bitgach, Qozizoda Rumiya unga mudarris etib tayinlandi. Madrasaning ochilishiga bag'ishlangan tantanada so'zlagan nutqida yig'ilganlarga qarata Samarqand paydo bo'lganidan beri, biron bir yigit ilmiy quvvat va salohiyatda Jomiy singari martabaga yetisha olmadi, deb xitob qildi – degan ma'noda yozib qoldirgan.

Mana shunday yuksak iste'dod egasi Abdurahmon Jomiydan bizgacha juda katta ilmiy va adabiy meros qolgan. Jomiy ijodiyoti turli sohalarni qamrab olingan bo'lib, uni pedagogika sohasi nuqtai nazaridan ko'radigan bo'lsak, birinchi o'rinda mutafakkirning o'zini buyuk pedagog va komillikni o'zida mujassam eta olgan shaxs sifatida misol keltira olamiz. Bundan tashqari Jomiy asarlaridan odob-axloq, tarbiya, do'stlik, halollik, poklik, muhabbat, sadoqat, sabr, mehnat, ilmsevarlik, jasurlik, musiqa, axloq, diniy-falsafiy, til gramatikasi, nutq madaniyati, pedagogning nazokati haqidagi mavzularni pedagogika darslari jarayonida mavzularga moslashtirgan holda talabalarga o'rgatib borish dars mashg'ulotlarining saviyasi o'tishiga va talabalarda insoniylik sifatlarini shakllantirishda xizmat qiladi. Ayniqsa tarbiya mavzusiga bevosita "Bahoriston" asaridan misollar keltirib, bolalar bilan tahlil etish bolalarni fikrlashga, xulosa chiqarishga va og'zaki nutqni rivojlanishga undaydi. Ushbu asarda Jomiy insoniylik sifatlar, farzand tarbiyasi, kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat-izzat, halollik, ezgulik, ota-onaga hurmat keltirish, ta'lim-tarbiya kabi hayotning turli masalalari haqida o'z fikrlarini bildirgan. Shu o'rinda aytish joizki, Abdurahmon Jomiy ilmiy va adabiy asarlari orqali yuqoridagi g'oyalarni targ'ib qilish natijasida nafaqat Sharq adabiyotida, balki keyinchalik boshqa mintaqa davlatlarida ham adabiyotni yanada rivojlanishiga yo'l ochdi. Yo bo'lmasa falsafiy-irfoniy asarlari ham diniy va axloqiy tarbiya haqida so'zlovchi va misollar keltiruvchi manba bo'la oladi. Shuningdek kitobsevarlik haqidagi she'riy misralari hamisha insonlarni ilm olishga da'vat etib, yosh avlodning kitobga bo'lgan munosabatini yaxshi tomonga o'zgartirishga xizmat qilib kelmoqda. Kitobga nisbatan muhabbat albatta bolalarda ma'naviy tarbiyaning shakllanishiga ko'mak beruvchi omillardan sanaladi.

Chunonchi:

Kitobdan yaxshi do'st yo'q jahonda,
G'amxo'ring bo'lgan u hamli zamonda.
U bilan qol tanho, hech bermas ozor,
Joningga yuz rohat beradi takror.

Jomiyning shu singari misralari necha asrlardirki, o'z ta'sirini yo'qotmay hamisha jamiyatning dolzarb mavzulari bo'lib qolmoqda. Ya'ni bugungi kunda ham yoshlarni kitobsevarlikka chorlash, ularni kitobga nisbatan muhabbatini oshirish uchun hukumatimiz tomonidan ham alohida e'tibor berilib, sa'y harakatlar

qilinmoqda va albatta bolalarni turli adabiyotlardan foydalanishlari uchun sharoitlar ham yaratib berilmoqda.

Ilm-hunar o'rganish har bir davr-zamonda muhim hisoblangan. Zotan insonning inson kabi umrguzaronlik qilishiga kasbi, hunari va albatta ilmi chin ma'noda ko'maklashadi va yorug' yo'l tomon ergashtiradi. Jomiy ham ilmni hunarlarning toji deb ta'riflagan va barcha yopiq eshiklarning ochilajak kalitini ham ilm deb ta'kidlagan. Jomiyning fikricha, ilm inson uchun xayotiga yo'l ochuvchi va uni o'z maqsadiga erishtiruvchi omildir.

Тоҷи сари ҷумла ҳунарҳост илм,
Қулфқушои ҳама дарҳост илм.

Tarjimasi:

Ilm - barcha hunarning toji - bebaho,
Ilm - hamma qulfning kaliti - a'lo.

Yuqorida keltirilgan misralar kabi Jomiy ijodiyotidan ko'plab misollar keltirish mumkin. Ularning barchasini pedagogik nuqtai nazardan qaraganda talaba - yoshlarni har tomonlama tarbiyalashda va yaxshi yo'lga yo'naltirishga xizmat qiluvchi qimmatli ilmiy va adabiy meros hisoblanadi. Abdurahmon Jomiy o'zidan keyin turli fan, jumladan pedagogikaga doir o'lmas meros qoldirgan. U o'z asarlarida, ayniqsa, nasriy yo'lda yozilgan "Bahoriston" asarida ta'lim-tarbiya masalalari xususida fikr bildirgan. Jomiy ilmni inson uchun xayotiga yo'l ochuvchi va uni o'z maqsadiga erishtiruvchi omil sanalgan. Mutafakkir turli mavzularda asarlar ijod qilingan. Jumladan, "Oltin zanjir" dostonida naqshbandiylik, so'fiylar haqidagi tasavvurlar nasrda hikoya qilinadi. Shuningdek Alisher Navoiy kabi Jomiy ijodida ham XV asrda anchagina mashhur bo'lgan juda qiyin va maroqli san'at turi hisoblanmish she'riy shakldagi jumboqlar yaratganligini ham ko'rishimiz mumkin. Aynan o'sha davrda shoirning ijodiy uslubining o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'lib, barcha an'anaviy she'riy shakllar uning she'riyatida o'z aksini topgan. 1476-1478-yillar oralig'ida u "Muqaddas dargohdan do'stlik shamoli" nomli to'plamini tuzgan bo'lib, unda so'fiylik avliyolarning tarjimai holi o'rin olgan. 1480-1487-yillar Jomiyning qalamiga mansub "Yetti toj" deb nomlangan dostonlar majmui birin-ketin yoziladi. Jomiyning "Yusuf va Zulayho", "Layli va Majnun" dostonida muhabbat va sadoqat negiziga shoir so'fiylar ta'limotini poydevor qilgan, ze'ro, unga ko'ra, chinakam, ilohiy sevgiga erishish uchun shahvoniy maylni yengib o'tish zarur deb keltirilgan. "Olijanoblarga tortiq" dostoni esa pand-nasihat, oshkoralik xarakteridagi 20 ta masalni o'zida mujassam etsada, shu bilan birgalikda majmuada "Taqvodorlar tasbehi" dostoni, "Oltin zanjir" dostonining 2 hamda 3-qismlari, "Iskandarning donolik kitobi" ham o'rin o'lgan. Abdurahmon Jomiyning yana bir mashhur

asarlaridan biri “Bahoriston” hisoblanadi. “Bahoriston” sakkiz bobdan iborat bo’lib, har bir bob “ravza” deb keltirilgan. “Bahoriston” dagi barcha boblar axloqiy tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lib, oriflar sarguzashti, buyuklarning hikmatlari, shohlar hikoyasi, ularning adolati va go’zal axloqi, saxiylikni targ’ib qilish, qiziqarli sevgi hikoyalari, shoirlarning tavsifi, she’rning ta’rifi, kelib chiqishi va go’zalligi, tamsiliy hikoyalar kitobda muhokama qilinadigan masalalardir. “Bahoriston” juda qisqa vaqt ichida Shayx Sa’diyning “Guliston” asari ta’sirida yaratilgan. “Bahoriston” ma’rifiy-axloqiy asar bo’lib, kirish, xulosa va sakkiz bobdan iborat. “Bahoriston”da qisqa va mazmunli hikoyalar, ta’sirchan latifalar juda ixcham va ajoyib tarzda berilgan. Shuni qo’shimcha qilish kerakki, adibning barcha hikoya va hikmatlari yuksak tarbiyaviy-axloqiy mazmunga ega. “Bahoriston”ni yozishdan maqsad, eng avvalo, yozuvchining o’z farzandini to’g’ri yo’lga yo’naltirish edi. “Bahoriston” asari va “Haft avrang” ga kirgan “Tuhfat-ul ahror” hamda “Silsilatuz zahab” (“Oltin zanjir”) va boshqa dostonlarida Jomiy haqiqiy kamolotga erishgan inson haqidagi qarashlarini bayon etadi. “Silsilatuz zahab” (“Oltin zanjir”) dostonida “Sevimli aziz farzandga nasihat” bobida, avvalo har bir yosh bilim olishi zarurligi, chunki inson umri juda qisqa bo’lib, bu umrni behuda o’tkazmasligi, ammo bilim olgandan so’ng unga amal qilish lozimligini ta’kidlaydi va amaliyotsiz ilm ham behuda ekanligini alohida uqtiradi. Mutafakkir o’z farzandiga va o’zining farzandi siymosida jumla farzandlarga inson uchun bilim hamma narsadan muhimroqligini bod-bod takrorlagan. Mutafakkir o’zing uchun zarur bo’lgan bilimni o’rgan va albatta olingan bilimingdan samarali foydalan degan ma’nodagi fikrlarini nazmda quyidagicha ifodalangan:

Hammadan avval farzand, bilimdan bahramand bo’l,
Nodonlik yurtidan chiq, bilim tomon ol yo’l.
Har bir kishiga bu so’z, oyna kabi ayondir,
Dono tirik hamisha, nodon o’liksimondir.
Eng zarur bilimni qunt bilan o’rgan,
Zarur bo’lmaganing axtarib yurma.
Zarurini hosil qilgandan keyin,
Unga amal qilmay umr o’tkurma.

Bunday oqilona fikrlar bugungi kunda ham o’z kuchiga ega bo’lib, yoshlarimizning bilimli bo’lishi, ularning kasb-hunar o’rganishi hukumat tomonidan alohida e’tibordadir. Birgina ta’lim sohasidagi oxirgi yillar islohotlari sifatida oliy ta’lim misolida har bir sohaga oid mutaxassislik fanlarining chuqur o’rgatilishi va turkum fanlardan ham talabalrni xabardor qilinishi, ammo umuman aloqadorligi bo’lmagan fanlarni olib tashlangani, shuni asosida pedagogika sohasidagi ba’zi bir

yo'nalishlarining o'qish davomiyligi qisqartirilganini Jomiyning "Senga zarur bo'lmagan sohalar uchun vaqtingni behuda o'tkazma" degan ma'niodagi fikrlarini isbotini keltirishimiz mumkin. Demak Jomiyning qalam tebratgan mavzulari, g'oyalari necha asrlardirki o'z haqiqatini topib kelmoqda. Bunday yuksaklik har qanday yozuvchi yoki shoirga ham nasib etavermaydi. Ya'ni Jomiy asarlarining hali hamon barhayotligi, qo'l urgan mavzularining yillar osha dolzarbligini yuqotmaganligi uning yuksak iste'dod va mahoratidan dalolatdir. Abdurahmon Jomiy o'z davrida omma e'tirofini qozongan, jamiyat, ilm-fan, falsafa, san'at, shoirona so'zlash mahoratida obro'li inson bo'lgan. Bularning barchasiga buyuk Jomiy nomini asrlarga muhrlab qo'ygan uning umuminsoniy shoirona merosi sabab bo'lgan mahorati qarshisida nafaqat Sharqning ma'rifatparvar donolari, balki sharqiy davlatlarning mag'rur hukmdorlari ham bosh egadi.

Xulosa. Buyuk mutafakkirning turli sohalarga oid ko'p qirrali merosi bir necha asrlardan bera o'z qadr-qimmatini yuqotgani yo'q va doim ilm ahli nigohida bo'lib kelinmoqda. Shu sabab Mavlono Jomiy asarlari dunyoning turli tillarida tarjima qilinib, mashhur allomalarning asarlari qatorida jahon ma'naviyati chirog'i durdonalari safida o'z o'rniga egadir. Jomiy ijodiy merosining yana bir gavhari hisoblanmish "Solomon va Absal" dostoni hisoblanadi. Mazkur doston, yillar davomida nazm shinavandalari, romantik rivoyatlarning havaskorlari va hikmatli she'riyatning nozik ixlosmandlari diqqat markazidan chetlashmagan. U chuqur she'riy shakldagi qadimiy syujetga ega ilk muhim badiiy asargina bo'lib qolmay, shoirning yetuk davridagi adabiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini o'z ichiga olgan doston hamdir. "Solomon va Absal" asari o'tgan yuz yillikda g'arbiy Ovrupoda ham juda mashhur bo'lgan: 1856-yil dostonni mashhur shoir, Umar Xayyom to'rtliklarini tarjima qilgan taniqli tarjimon Fitsdjerold (1809-1883) tomonidan ingliz tiliga she'riy qofiyada tarjima qilingan. Mazkur asarni fransuz tiliga Avgust Brikte tomonidan doston ko'rinishida tarjima qilingan va Parij shahrida nashrdan chiqqan. Rus tilida esa "Solomon va Absal" dostoni ilk bor sovet sharqshunosi Konstantin Chaykin tomonidan tarjima qilingan. Bundan ko'rinib turibiki Abdurahmon Jomiy asarlari na faqat Sharq xalqlarining ma'naviyatini yuksalishiga xizmat qilibgina qolmay, balki butun insoniyatning ma'naviy tafakkurini shakllantirishga xizmat qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHLTLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 537-544.
2. Hamroyeva, O. F. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KASBIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 985-991.
3. Abdixakimovich, X. K. (2023). PEDAGOGIK HMKORLIK ASOSIDA BO 'LAJAK OFITSERLARDA FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation*, 2(Special Issue 12), 538-541.
4. Ergasheva, N. M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARLARINING KOGNITIV KOMPETENTLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 697-702.
5. Сойибназаров, А. И. (2023). МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ УЧУН ОНЛАЙН ХИЗМАТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. ВАРҚАРОРЛИК ВА YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 3(1), 79-81.
6. Сойибназаров, А. (2023, November). ФОРМИРОВАНИЕ НОВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ И РЕШЕНИЕ ЛОГИЧЕСКИХ ПО ФИЗИКЕ. In *Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 11, pp. 57-65)*.
7. Soyibnazarov, A. (2023, November). UMUMTA'LIM MAKTABLARDA FIZIKA FANIDAN MASALALAR YECHISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.
8. Soyibnazarov, A. (2023, November). FIZIKA FANINI O 'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O 'RNI VA AHAMIYATI. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.
9. Soyibnazarov, A. (2023). O 'QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY, PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (3), 35-35.